



## FARG‘ONA VILOYATI BUVAYDA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2024 - yil 15 - mart

38-11-154-F/24

Buvayda tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 28, 73-moddalariga va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan, hamda tuman hokimining o‘rinbosari G‘.Mamajonovning bildirish xatini inobatga olib:**

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni va 2016-yil 28-dekabrda PQ-2705-sonli qarori ijrosini ta‘minlash, jumladan Afg‘onistonda xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm kuchlariga qarshi harbiy xarakterli harakatlar tugatilganligining 36-yilligi munosabati bilan jangchi-fahriylar va nogironlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida tumanimizda o‘tkaziladigan tadbirni yuqori saviyada tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlar uchun tuman mahalliy budjetining 2024-yilgi zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 25,0 (yigirma besh) mln.so‘m mablag‘ tuman hokimligiga ajratilsin.
- Tuman hokimligi bosh hisobchisi (M.G‘aniyev)ga:
  - ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish va uning maqsadli yo‘naltirilishini ta‘minlash;
  - moliyalashtirish manbasini ochish uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tegishli Iqtisodiyot va moliya bo‘limi va g‘aznachilik bo‘linmalariga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.
- Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Ergashev)ga ajratilgan mablag‘lar doirasida xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish va ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishini nazorat qilish, tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (Sh.Soliyev)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.
- Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari D.Mirzaxalilov va tuman hokimining o‘rinbosari G‘.Mamajonov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Odiljonovich I. B.